

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Bozorboyeva Matluba

Zafarobod tumani, 3-DMTT

Аннотация: Ушбу мақолада жамиятда китобхонликни ривожлантириш, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikrlik tўғрисидаги фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: китобхонлик, маънавий-маърифий, ҳамфикр, мутолаа, тафаккур, дунёқараш

Аннотация: В данной статье описаны идеи гармонии с семьей в любой деятельности по развитию чтения в обществе, повышению культуры чтения.

Ключевые слова: чтение, духовно-просветительская деятельность, единомыслие, чтение, мышление, мировоззрение.

Annotation: This article describes the ideas of harmony with the family in any activity to develop reading in society, to improve the culture of reading.

Keywords: reading, spiritual-enlightenment, like-mindedness, reading, thinking, worldview

Bugungi kunda mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklari barchamizga sir emas. Buning chuqur falsafasi bor albatta. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek Kitob odamlarning ongu tafakkuri, dunyoqarashini o'zgartirish, ma'naviy saviyasini yuksaltirishning eng ta'sirchan vositasidir. Kitob mutolaasiga havas avvalo, oiladan boshlanishi, ota-onalar farzandlarida kitob

o'qishga mehr uyg'otishi uchun o'zlari kitobxon bo'lishlari lozim. Darhaqiqat, kitob insonni yerdan ko'klarga ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch bo'lish bilan birga kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy salohiyatimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir bo'lgan mash'aladir. Bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Kitob - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchi sodiq do'st. Insonning ruhiy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitobchalik kuchli qudratga esa vosita yo'qdir. Shu boisdan, azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Tarbiyaning barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o'rnini nihoyatda kattadir. Qush uyasida ko'rganini qiladi, degan naqlga tayansak, bu mohiyat yanada dolzarb bosqichga ko'tariladi. Ota-onaning ma'naviy darajasi, axloqiy qarashlari bevosita farzandga ham ko'chib o'tadi, farzandlar shaxsiyatida aks-sado beradi. Binobarin, kitobxonlik, badiiy adabiyotga muhabbat ham inson ma'naviy tafakkurini, tarbiya ahvolini namoyon qiluvchi muhim xususiyatlar sirasidandir. Kitob dunyosiga oshufta, adabiy olamga hamnafas, badiiyatdan bahramand qalb egasi o'zidagi bu tuyg'u va fazilatlarni atrofidagilarga, ayniqsa, oilasiga ham yuqtirishi, singdirishi ehtimoli yuqori. Kitobxon ota-onalarning farzandi ham kitobga o'zgacha mehr ko'rsatadi, bu ma'naviyat xazinasiga tabiiy qiziqish va intilish tuyadi. Shu bois kitobxon avlod tarbiyasida, avvalo, ota-onaning tarbiyasi bo'lishi, badiiy adabiyotga oshno ekanligi muhim zaruriyatdir.

Kitobxon bo'lgan odam nafaqat o'zi, balki oila a'zolari, farzandlari va atrofidagilarni ham kitobning sirli olami tomon chorlaydi. Sekin – asta esa jamiyatda kitob o'qishga bo'lgan istak ortib boraveradi. SHarqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi

quyidagi firklariga bir quloq tutaylik: “Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo‘qdir. Kitob fasohat, balog‘atda, latofatda tengi yo‘q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg‘izlikda va g‘amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so‘zlarida yolg‘on va xato bo‘lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o‘z do‘stining dilini og‘ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g‘iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar etadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar etadi. Kitobdek do‘st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o‘tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. SHuning uchun ham “Kitob aql qal‘asidir”, deganlar”. Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. SHuning uchun ham yurtimizda kitob bilan oshno bo‘lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig‘idek asraganlarni ziyoli deb ataganlar. Ziyoli-Nur tarqatuvchi, u o‘zining xatti-harakatlari, faoliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma‘naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchilar hisoblangan. Shuningdek, mutolaa madaniyatining ham o‘ziga xos me‘yor va talablari mavjud. Shularni e‘tiborga olgan holda, oilaviy kitobxonlik madaniyatiga ega bo‘lish uchun quyidagi tavsiyalarni e‘tiborga olish nazarda tutiladi: - kitob mutolaasida hamisha farzandlarga o‘rnak bo‘lish; - kitob tanlash madaniyatiga ega bo‘lish; - muayyan vaqtlarda oila davrasida navbatma-navbat kitob o‘qib berishni yo‘lga qo‘yish; - kichik yoshdagi bolalarga ko‘proq rang-barang suratlarga yo‘g‘rilgan, katta-katta harflarda yozilgan, kitoblarni tanlash; - o‘rta yoshli kitobxon farzand uchun esa unga tengdosh qahramonlar taqdiri aks etgan, hayotiy, xayoliy-fantastik voqealar tasvirlangan, ko‘ngil kechinmalari jonlantirilgan asarlarni tavsiya qilish; - har bir kitob mutolaasi uchun har kunlik va haftalik miqdorlarni belgilash va muntazam nazorat qilib borish; - o‘qilgan asar mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakter-xususiyati, ijodkor yondashuvi, olingan taassurotlar bo‘yicha oilada davra suhbatini tashkil qilib borish; - jamiyatning moddiy-ma‘naviy taraqqiyoti uchun munosib

hissa qo‘shadigan yuksak ma‘naviyatli, intellektual salohiyatli oila sifatida qadr topish.

Yuqoridagilarni hisobga olib aytish mumkin-ki, ma‘naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oilada ota-ona e‘tibori, yordami muhim va mustahkam poydevor. Shu bois jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikir bo‘lgan holda ish yuritish ko‘zlangan maqsadlarga oson erishishga munosib zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. / Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar. - T.: «O‘zbekiston», 2017.
2. Usmonova M. **Kichik maktab yoshdagi bolaning motivatsiya sohasi rivojlanishi: Kichik Maktab Yoshdagi Bolaning Motivatsiya Sohasi Rivojlanishi**, - Журнал дошкольного образования, 2021
3. Usmanova, M. (2020). 6-7-YOSHLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TA‘LIMIY MASHG‘ULOTLARNING O‘RNI. *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://matinfo.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/147>
4. Usmanova, M. (2021). Bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://matinfo.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3973>

